

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSS.03/30.12.2019.I.17.01. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**Qo'lyozma huquqida
UDK: 657.6:339.14(575.1)**

ALIMXANOVA NIGORA ALIMXANOVNA

**TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOB VA AUDITINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy)
ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar: i.f.d., prof. I.N.Qo'ziyev

Toshkent – 2025

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBI VA AUDITINING NAZARIY ASOSLARI	11
1.1-§. Tovar-moddiy zaxiralarning iqtisodiy mohiyati va tasniflanishi	11
1.2-§. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditining normativ-huquqiy asoslari	21
1.3-§. Tovar-moddiy zaxiralar auditining maqsadi va vazifalari.....	27
I bob bo'yicha xulosa	40
II BOB. XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA TOVAR- MODDIY ZAXIRALAR HISOBI VA AUDITINING AMALDAGI HOLATI	43
2.1-§. Tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish tartibi	43
2.2-§. Tovar-moddiy zaxiralarni baholashning o'ziga xos xususiyatlari va bosqichlari.....	56
2.3-§. Tovar-moddiy zaxiralar auditining amaliy jihatlari	67
II bob bo'yicha xulosa.....	79
III BOB. TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	81
3.1-§. Tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish	81
3.2-§. Tovar-moddiy zaxiralar auditini takomillashtirish	91
3.3-§. Tovar-moddiy zaxiralar auditidagi muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'nalishlari.....	102
III bob bo'yicha xulosa.....	118
XULOSA.....	119
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	123
ILOVALAR.....	133

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida butun dunyoda tovar-moddiy boyliklar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barqaror iqtisodiy o‘sishi va ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. “Tovar-moddiy zaxiralar darajasining keskin oshib ketishi 2020-2021-yillarda jahonning yirik ishlab chiqarish kompaniyalarida salbiy dinamika sifatida ko‘zga tashlangan bo‘lsada, 2023-2024-yillarga kelib ishlab chiqarish kompaniyalarida tovar-moddiy zaxiralarning darajasi pasayishi kuzatilmoqda. 2023-yilda tovar ayirboshlashning pasayishi qisman ishlab chiqarish kompaniyalarining ta‘minot zanjiri uzilishlaridan himoya qilish uchun COVID-19 pandemiyasi davrida to‘plagan tovar-moddiy zaxiralarning qisqarishi bilan bog‘liq. Tovar-moddiy zaxiralardagi o‘zgarishlar 2023-yilda jahon savdosining 0,3 foizini, 2022-yilda 0,8 foizini hamda 2021-yilda 0,6 foizini tashkil qilgan”¹. Global iqtisodiy o‘zgarishlar vaqtida tovar-moddiy zaxiralarning bir maromda to‘planishi hamda ishlab chiqarishga sarflanishi kompaniyalarning moliyaviy barqarorligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuning uchun, tovar-moddiy zaxiralarni samarali boshqarish hamda ularning hisobi va auditini to‘g‘ri va haqqoniy yuritish dolzarb hisoblanadi.

Jahonda tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar soni va samarasi ortib bormoqda. Olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarida tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya hisobida to‘g‘ri baholash, tovar-moddiy zaxiralar tannarxini haqqoniy aniqlash, tovar-moddiy zaxiralar auditida dalillar to‘plash, muhim buzib ko‘rsatishlar riski darajasini kamaytirish hamda tovar-moddiy zaxiralar auditida tahliliy amallarni qo‘llash bo‘yicha innovatsion yondashuvlarni ishlab chiqishga e‘tibor qaratilmoqda. Biroq, yuqoridagi tadqiqotlarda tovar-moddiy zaxiralar harakatini avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobida yuritish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda materiallar buyicha me‘yordan chetga chiqishlar hisobini yuritish, qurilish materiallarini ishlab chiqarish hisobini yuritish, auditorlik tekshiruvlarida

¹ <https://documents.worldbank.org/en/publisatation/documents-reports>, February-2024

ichki nazorat tizimini o'rganish va baholash, faoliyat uzluksizligini baholash bilan bog'liq bir qator muammolar o'z yechimini topmagan.

O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobi sohasini tizimlashtirish hamda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish jarayonlarini jadallashtirish, shuningdek auditning xalqaro standartlarini amaliyotga qo'llashni yanada takomillashtirish asosida tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini samarali va aniq, haqqoniy tashkil qilish hamda yuritishga doir izchil islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish takomillashtirish maqsadida "MHXS va unga tushuntirishlar matnlarini davlat tiliga tarjima qilish, buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga uyg'unlashtirishni hisobga olgan holda ularni takomillashtirish hamda davlat ulushi ishtirokidagi xo'jalik jamiyatlari va davlat korxonalarida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobot tuzishni MHXS asosida amalga oshirishga o'tish"² kabi vazifalar belgilab olinganligini inobatga olgan holda, tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini xalqaro standartlar talablari asosida yanada takomillashtirish borasida ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, tovar-moddiy zaxiralarni to'g'ri va haqqoniy baholash, ularning tannarxini to'g'ri hisoblash, shuningdek, tovar-moddiy zaxiralar auditida muhimlik va risk darajalarini to'g'ri va aniq belgilash hamda tahliliy amallarni qo'llash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 24-avgustdagi PF-198-son "Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo'l qo'ymaslik, xususiyl mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 27-oktyabrdagi PF-6096-son "Davlat ishtirokidagi korxonalarni isloh qilishni jadallashtirish hamda davlat aktivlarini xususiylashtirishga

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. <https://lex.uz/doss/4746047>